



## O'QUVCHILAR KAYFIYATINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOSLIGI

*Mirzaxmatova S.S TDTU Olmaliq filiali*

*“Ijtimoiy gumanitar fanlar va tillar” kafedrası Assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kayfiyat va unga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilar kayfiyatini boshqarish va undan maqsad, o'qitish jarayonida o'quvchilarda optimal kayfiyatni paydo qilish, kayfiyatni nazorat qilish kabilar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kayfiyat, qiziqish, emotsiya, diqqatning konsentratsiyasi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о настроении и факторах, влияющих на него, управлении настроением студентов и его целях, создании оптимального настроения у студентов во время обучения.

**Ключевые слова:** настроение, интерес, эмоция, концентрация внимания.

**Abstract:** This article talks about mood and its influencing factors, management of students' mood and its purpose, creation of optimal mood in students during teaching, control of mood, etc.

**Key words:** mood, interest, emotion, concentration of attention.

Shaxsning hatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deyiladi. Kayfiyat juda beqarordir, u ko'tarilishi yoki pasayishi, ijobiydan salbiyga o'tishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Inson kayfiyatining paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkita omilni taxlillash mutlaqo shart. Ulardan bittasi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taaluqli bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi, bioritmika o'zgarishi), b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchi bir manba sifatidagi talqin qilish mumkin - bu ob'ektiv va sub'ektiv shart sharoitlardir. Masalan mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi (ish dastgohi, mehnat quroli, yorug'lik, auditoriya, partalar va boshqalar). Ikkinchidan, sub'ektiv munosabatlar; ilk psixologik muhit, muloqatmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatga tegmaslik, teng huquqlilik, hamkorlik, o'zaro tushunish, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokazo.

Istalgan murakkab dinamik sistemani boshqarish, shu jumladan, o'quvchilar kayfiyatini ham boshqarish, agarda u qat'iy aniqlangan maqsadga ega bolsa, sistemali tarzda programmalashtirib turilsa, doimo nazorat qilib,

o'z vaqtida regilirovka qilib turilsagina samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilar kayfiyatini boshqarishdan asosiy maqsad, barcha nazariy va amaliy mashg'ulotlarda uning optimal bo'lishi, y'ani o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatining aniq turi uchun eng yaxshi bo'lishidir. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulot yoki ishlarning raxbari sifatida jumladan, quyidagilarni: a) bolajak ish yoki mashg'ulotlardagi o'quvchilar faoliyatining texnik va psixologik tuzilmasini; b) o'quvchilarning qanday psixik holatlarida bu faoliyat muvaffaqiyatliroq amalga oshishini; v) mazkur vaqtda o'quvchilar qanday psixik holatdaligini va u nimasi bilan optimal psixik holatga to'g'ri kelmasligini bilishi kerak bo'ladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his tuyg'u uyg'otmasa, bunday ma'lumotni yaxshi esda olib qolmaydilar. O'quvchilarning ijobiy psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalarini hisobga olish kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

O'qituvchining ma'ruzasini tinglash, esda olib qolish va uning mazmunidan asosiyini topish, uning ustida fikr yuritish, yangini



oldindan ma'lum bo'lgan bilan qiyoslashdir. Bu erda qiziqish, idrok qilinayotgan materialda to'planganlik va quntning optimal holati zarur.

O'quvchilarning o'qituvchi topshirgan birorta texnik topshiriqni mustaqil hal qilishlari endi ulardan faoliyatning boshqacharoq psixologik tuzilmasini va psixik holatni talab qiladi. Masalan yaxshi tushunish, shunga oxshash masalalarni echish qoidalarini eslash, uni echish yollarini oylab topish va harakatlarning to'g'riligini, hamda natijalarini doimo nazorat qilib turgan holda bajarish kerak bo'ladi. Bunda topshiriqni o'z vaqtida va to'g'ri echish ma'suliyatini, sinfdoshlardan vaqtincha ajralganlik, diqqatning yuqori konsentratsiyasi, kam harakatlilik, qisman tanglik holatini his etish juda muhimdir.

Biror texnika vositalari bilan bo'ladigan laboratoriya ishlari vaqtida faoliyatning psixologik tuzilmasi tamoman boshqacha bo'ladi. Bu o'rinda ham qiziqish, ma'suliyatni his qilish, diqqat e'tiborlilik, zehn kerak bo'ladi, biroq bulardan tashqari tadbirkorlik, harakatchanlik, epcillik, ma'lum aniqlikdagi izchillik, harakatlarning aniqligi va deyarli doimo o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muomalada bo'lib turish talab qilinadi.

Bularning barchasini bilgan o'qituvchigina o'quvchilar bilan o'tkaziladigan u yoki bu mashg'ulot boshidayoq, ularning o'quv ishlari muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun o'quvchilardagi psixik holat va umumiy kayfiyat qanday bo'lishi kerakligi oldindan ma'lumdir, biroq bu o'rinda unda: sinf yoki o'quv laboratoriyasiga kelgan o'quvchilardagi yaqqol kayfiyat ayni talab qilinayotgan kayfiyatmi yoki optimalga biror narsasi bilan muvofiq kelmaydimi? Nimasi bilan muvofiq kelmaydi? Nima uchun muvofiq kelmaydi?

O'qituvchining o'qitish jarayonida o'quvchilarda optimal kayfiyatni yaratish bo'yicha harakatlarning tartibi quyidagi vazifalarni izchil hal qilishdan iborat bo'ladi:

1.Hozirgina mashg'ulotga kelgan oquvchilarning kayfiyatlarini ularning xatti-harakatlarini bevosita mashg'ulotlardan oldin va mashg'ulot boshlanishida kuzatish yo'li bilan aniqlanadi.

2.Butun guruh yoki ayrim o'quvchilarda haqiqiy namoyon bo'lib turgan kayfiyat nimasi bilan mazkur mashg'ulot uchun talab

qilinayotgan kayfiyatga muvofiq kelmasligini belgilash va bunda taxminan bo'sa-da , salbiy psixik holatni bartaraf qilish va optimal kayfiyatni yaratish.

3.Butun jamoasidagi salbiy psixik holatni bartaraf qilish va optimal kayfiyatni yaratish.

O'quvchilarning kayfiyatlarini mashgulotlar jarayonida boshqarish ulardagi optimal psixik holatlarni ogohlantirish yo'li bilan saqlash hamda yaxshilash va har qanday salbiy psixik holatlarni yo'qotish maqsadida amalga oshiriladi. Salbiy psixik holatlar o'qituvchining aytgan faqat birgina o'rinsiz so'zi yoki nojo'ya ogonlantirishi, o'quvchilarga o'ta engil yoki qo'llaridan kelmaydigan topshiriq berilishi , biror o'quvchining noo'rin haziliy yoki xatti – harakati, shuningdek mashg'ulotlarning bir hilligi, charchash yoki toliqishidan paydo bo'lishi mumkin. O'quv jarayoniga halal beradigan bunday sabablar juda ko'pdir va ularning har biri mazkur mashg'ulot uchun salbiy psixik holatni, emotsiyalar orqali esa o'quv jarayonining samaraliligini pasaytiruvchi o'quvchilarning umumiy kayfiyatlarini keltirib chiqarish mumkin.

O'qituvchining xatosiga yoki biror o'quvchiga qilgan noo'rin tanbehida yoki aksincha o'quvchining hatti-harakatida ifodalanuvchi har bir to'siq darhol bartaraf qilinishi va u xosil qilgan taassurot, demak o'quvchilarning holatlariga o'tishi mumkin bo'lgan psixik reaksiya ham to'g'irlanishi kerak. O'qituvchilik faoliyatidagi eng asosiy qiyinchilik va uning barcha nozikligi xuddi mana shu , o'quvchilar kayfiyatini boshqarishdan iboratdir.

Salbiy psixik holatlarni esa quyidagi tadbirlarning biri bilan bartaraf qilish mumkin: biror narsa yuzasidan musobaqa uyushtirish; birorta hushxabarni aytish; muvaffaqiyatni rag'batlantirish; ishga jalb qilish, shaxsiy namuna ko'rsatish. Bu o'rinda muvofiq keluvchi usul bilan birinchi navbatda rasmiy bo'lmagan kichik guruhlar etakchilarini jalb qilishga harakat qilish lozim, chunki qolgan o'quvchilar ixtiyorsiz tarzda ularga ergashadilar.

Salbiy psixik holatlarning paydo bo'lishini aniqlash va uni bartaraf qilish ishi ularni nazorat qilish hamda boshqarish vazifasiga tegishlidir.



Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning kayfiyatlarini nazorat qilish – o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O'quv jarayonidagi teskari aloqaning asosiy mohiyati mana shundadir, chunki usiz hech qanday boshqarish, buning ustiga o'quvchilarning kayfiyati singari juda murakkab va o'ta beqaror bo'lgan psixik hodisani boshqarish umuman mumkin emas. O'qituvchining har bir so'zi, uning har bir topshirig'i yoki tanbehi bu o'quvchilarning

psixikasiga, jumladan, psixik holatlariga bevosita ta'sir etishidir. Bu ta'sirlar qanchalik samarali, foydali yoki zararli ekanligini faqat o'quvchilarning bu ta'siriga qanday reaksiya bildirishlarini doimiy kuzatish orqali aniqlash mumkin. O'quvchilar tomonidan biror salbiy reaksiya bildirilayotganligini aniqlanishi bilan o'qituvchidan bu salbiy reaksiya butun o'quv guruhining umumiy kayfiyatini buzmasligi uchun beto'xtov choralar ko'rishini talab qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do'stmuhamedova Sh.A. "O'quv jarayonini boshqarish psixologiyasi" T.Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.
2. G'oziyev E.E. "Umumiy psixologiya" Toshken, 2002.
3. Z.T. Nishonova, Sh.A. Do'stmuhamedova, Sh.T.Tulaganova "Pedagogik psixologiya" Toshkent, 2011.
4. Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" Toshkent, 2020.
5. USING MODERN HEARING DEVICES IN TEACHING DEAF CHILDREN (Mirzakhmatova Sayyora Saydakhmatovna , Trans.). (2025). Fan, Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3(21), 4-5. <https://uzresearch1.uz/index.php/FJI/article/view/464>
6. Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna. (2025). TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR, 2(18), 75–76. Retrieved from <https://www.uzresearch.uz/index.php/FJI/article/view/1089>